

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEK KINOQISSALARIDA NUTQ IJTIMOIIY IXTISOSLASHUVINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Xolmuradova Mexrinisa Ibrahimovna

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, dekan.

e-mail: mehrinisoxolmurodova04@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0008-7045-2703>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek kinoqissalarida qahramonlar nutqining ijtimoiy ixtisoslashuvini ifodalovchi lingvistik vositalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqning ijtimoiy tabaqalanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, qahramonlarning kasbiy faoliyati, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, ta'lim darajasi va kommunikativ muhiti bilan bog'liq til birliklari sotsiolingvistik hamda lingvopragmatik yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, kinoqissa matnlarida leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik vositalarning qahramon xarakterini yaratishdagi o'rni, nutq orqali ijtimoiy identifikatsiyani ifodalash imkoniyatlari hamda muallifning badiiy-estetik maqsadini amalga oshirishdagi funksional xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, kontekstual va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek kinoqissasi, nutq, ijtimoiy ixtisoslashuv, sotsiolingvistika, lingvistik xususiyatlar, qahramon nutqi, lingvopragmatika, badiiy diskurs, kommunikativ vaziyat, leksik birliklar, stilistik vositalar, ijtimoiy identifikatsiya.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ РЕЧИ В УЗБЕКСКИХ КИНОКОМИКАХ

Холмурадова Мехриниса Ибрагимовна

Государственная академия хореографии Узбекистана, декан.

Аннотация.

В статье анализируются лингвистические средства, выражающие социальную специализацию речи персонажей в узбекских киноповестях. В исследовании на основе социолингвистического, а также лингвопрагматического подхода исследуются основные факторы, влияющие на социальную стратификацию речи, включая языковые единицы, связанные с профессиональной деятельностью героев, возрастом, полом, социальным статусом, уровнем образования и коммуникативной средой. В текстах кинофильмов также освещаются роль лексических, фразеологических, морфологических и синтаксических средств в создании характера персонажа, возможности выражения социальной идентичности посредством речи, а также функциональные особенности в реализации художественно-эстетических целей автора. В исследовании использовались методы описательного, сравнительного, контекстуального и дискурсивного анализа.

Ключевые слова: узбекская киноповесть, речь, социальная специализация, социолингвистика, языковые особенности, речь героя, лингвопрагматика, художественный дискурс, коммуникативная ситуация, лексические единицы, стилистические средства, социальная идентичность.

LINGUISTIC FEATURES OF SOCIAL SPECIALIZATION OF SPEECH IN UZBEK FILMS

Xolmuradova Mexrinisa Ibrahimovna

State Academy of Choreography of Uzbekistan, Dean.

Abstract.

This article analyzes linguistic means that represent the social specialization of the speech of heroes in Uzbek cinema. In the study, the main factors affecting the social stratification of speech, including language units related to the professional activity, age, gender, social status, level of education and communicative environment of the characters, are studied on the basis of a sociolinguistic and linguopragmatic approach. The text also highlights the role of lexical, phraseological, morphological, and syntactic means in creating the character of the hero, the possibilities of expressing social identity through speech, and the functional features of the author in realizing his artistic and aesthetic goals. The study used descriptive, comparative, contextual, and discursive analysis methods.

Keywords: Uzbek cinema, speech, social specialization, sociolinguistics, linguistic features, heroic speech, linguopragmatics, artistic discourse, communicative situation, lexical units, stylistic means, social identity.

Kirish. Globallashuv va axborot almashinuvi jadallashayotgan bugungi davrda tilning jamiyat bilan o'zaro munosabatini o'rganish tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, badiiy matn va kino matni tarkibidagi qahramonlar nutqini sotsiolingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish til birliklarining ijtimoiy vazifasi hamda kommunikativ imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu jihatdan o'zbek kinoqissalari nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki jamiyatning til madaniyati, milliy mentaliteti va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kinoqissalarda qahramon nutqi tasodifiy tanlanmaydi. Muallif har bir obrazning yoshi, kasbi, ma'lumoti, yashash muhiti, ijtimoiy mavqei va psixologik holatini hisobga olgan holda til birliklarini tanlaydi. Natijada nutq obraz yaratishning eng muhim vositalaridan biriga aylanadi. Ayniqsa, dialoglar orqali qahramonning ichki dunyosi, dunyoqarashi, milliy qadriyatlari va jamiyatdagi o'рни tabiiy hamda ishonarli tarzda namoyon bo'ladi. O'zbek kino san'atida yaratilgan ko'plab kinoqissalarda turli ijtimoiy qatlam vakillarining nutqi o'ziga xos lingvistik belgilar orqali ifodalangan. Bunday asarlarda adabiy til birliklari bilan bir qatorda so'zlashuv uslubiga xos vositalar, kasbiy leksika, dialektal birliklar, frazeologizmlar, murojaat shakllari hamda pragmatik vositalar faol qo'llanadi. Mazkur vositalar qahramonning individual nutq portretini yaratish bilan birga, asarning badiiy ta'sirchanligini ham kuchaytiradi.

Erkin A'zam ijodi bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Adibning kinoqissalarida qahramonlar nutqi hayotiyli, tabiiyli va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida oddiy insonlar, ziyolilar, rahbarlar, qishloq aholisi va turli kasb egalari nutqining individual xususiyatlari mohirlik bilan ifodalangan. Bu esa Erkin A'zam kinoqissalarini sotsiolingvistik va lingvopragmatik jihatdan tadqiq etish zaruratini yanada oshiradi. O'zbek kinoqissalarida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvini yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalarni aniqlash, ularning qahramon xarakterini ochishdagi funksional imkoniyatlarini tahlil qilish hamda badiiy diskursdagi kommunikativ ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Nutqning ijtimoiy tabiati va uning jamiyat bilan o'zaro aloqadorligini o'rganish sotsiolingvistikaning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari U. Labov [1], J. Gumperz [2], D. Hymes va B. Bernstein [3] tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning tadqiqotlarida tilning ijtimoiy tabaqalanishi, kommunikativ vaziyatga bog'liq holda nutqning o'zgarishi hamda til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Badiiy matn tilini lingvistik jihatdan o'rganish masalalari rus va jahon tilshunosligida V.V. Vinogradov [4], M.M. Baxtin [5] hamda Y.M. Lotman [6] tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu olimlar badiiy asarda qahramon nutqining individual va ijtimoiy xususiyatlari obraz yaratishning muhim vositasi ekanligini ta'kidlaydilar.

O'zbek tilshunosligida nutqning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, badiiy matn lingvistikasi hamda sotsiolingvistik muammolar A. Nurmonov [7], Sh. Safarov [8], N. Mahmudov [9], B. Yo'ldoshev [10], M. Hakimov [11] va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida til birliklarining kommunikativ vazifasi, nutqning pragmatik xususiyatlari, badiiy matnda til vositalarining funksional imkoniyatlari hamda milliy-madaniy omillar keng tahlil qilingan.

So'nggi yillarda medialingvistika va kino diskursini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xorijiy tadqiqotchilar kino matnini multimodal diskurs sifatida baholab, unda verbal va nonverbal vositalarning o'zaro uyg'unligini tahlil qilganlar [12]. Biroq o'zbek kinoqissalarida qahramon nutqining ijtimoiy ixtisoslashuvi, uning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi hamda obraz yaratishdagi funksional imkoniyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Erkin A'zam [14] ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda adib asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari, obrazlar tizimi va uslubiy mahorati tahlil qilingan bo'lsa-da, uning kinoqissalarida qahramonlar nutqining sotsiolingvistik tabiati va ijtimoiy ixtisoslashuvi alohida lingvistik tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli mazkur maqolada o'zbek kinoqissalarida, xususan, Erkin A'zam kinoqissalari misolida qahramonlar nutqining ijtimoiy ixtisoslashuvini yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar, ularning kommunikativ vazifalari hamda badiiy matndagi funksional ahamiyati sotsiolingvistik va lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Muhokama. O'zbek kinoqissalarida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvini aniqlash va uning lingvistik xususiyatlarini yoritish maqsadida tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, sotsiolingvistik, lingvopragmatik hamda diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Erkin A'zamning *"Piyoda"*, *"Dilxiroj"*, shuningdek, o'zbek kino san'ati rivojida muhim o'rin tutgan *"Shum bola"*, *"Suyunchi"* va *"Abdullajon"* kinoqissalari tanlandi. Tahlil jarayonida qahramonlarning yoshi, jinsi, kasbiy faoliyati, ijtimoiy mavqei, yashash muhiti va kommunikativ vaziyatiga bog'liq holda qo'llangan til birliklari o'rganildi. Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi leksik, frazeologik, stilistik va pragmatik vositalar orqali tahlil qilinib, ularning badiiy matndagi funksional vazifasi aniqlandi. Shuningdek, qahramon nutqining individual uslubini shakllantirishda dialoglarning o'рни hamda muallifning til tanlash mahorati alohida e'tiborga olindi. Badiiy asarda qahramon xarakterini ochishda portret, voqealar rivoji va muallif izohlaridan tashqari, nutq eng muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kinoqissalarda dialog va monologlar syujet rivojini ta'minlash bilan birga, qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, kasbiy faoliyati, madaniy saviyasi va ruhiy holatini ham ochib beradi. Shu sababli kinoqissalar tilini o'rganishda nutqning ijtimoiy ixtisoslashuviga alohida e'tibor qaratish zarur.

Erkin A'zam kinoqissalarining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda qahramonlar sun'iy yoki bir xil uslubda emas, balki o'z yashash muhiti va ijtimoiy mavqeiga mos ravishda so'zlashadi. Muallif har bir obrazning nutqini individuallashtirish orqali uning xarakterini tabiiy ochishga erishadi. Asarlarda ziyolilar, oddiy mehnatkashlar, rahbarlar, qishloq aholisi hamda turli kasb egalari nutqi o'rtasidagi farqlar leksik va uslubiy vositalar yordamida aniq ifodalanadi. Masalan, *"Piyoda"* kinoqissasida bosh qahramon nutqida sodda va samimiy so'zlashuv uslubini ustunlik qiladi.

Qahramonning kundalik hayotga munosabati, atrofdagi voqealarni baholashi va boshqa obrazlar bilan muloqoti ortiqcha badiiy bezaklarsiz, xalqona iboralar vositasida beriladi. Natijada o'quvchi yoki tomoshabin qahramonni real hayot vakili sifatida qabul qiladi. Muallif aynan xalq tiliga yaqin bo'lgan leksik birliklardan foydalanish orqali obrazning tabiiyligini ta'minlaydi. **"Dilxiroj"** kinoqissasida esa qahramonlar nutqida ruhiy holat va kommunikativ vaziyatning ta'siri yaqqol seziladi. Dialoglarda qo'llangan murojaat shakllari, hissiy bo'yoqqa ega so'zlar, undov birliklari va pauzalar qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Ayrim dialoglarda qisqa, lo'nda gaplarning qo'llanishi keskinlikni kuchaytirsa, boshqa holatlarda kengaygan sintaktik konstruksiyalar obrazning fikriy va hissiy dunyosini chuqurroq ochishga imkon beradi.

O'zbek kinoqissalarida qahramon nutqining ijtimoiy ixtisoslashuvi, avvalo, kasbiy leksika orqali namoyon bo'ladi. Turli kasb egalari o'z faoliyatiga xos termin va iboralardan foydalanadi. Rahbar obrazlari nutqida rasmiy uslub elementlari, ziyolilar nutqida ilmiy va kitobiy birliklar, oddiy mehnatkashlar hamda qishloq aholisi nutqida esa so'zlashuv uslubi va xalqona iboralar ustunlik qiladi. Bu holat qahramonlarning ijtimoiy mansubligini tabiiy ravishda ochishga xizmat qiladi.

Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvida yosh omili ham muhim o'rin egallaydi. Katta avlod vakillari nutqida pand-nasihat, maqol va matallar, barqaror iboralar ko'proq uchrasa, yosh qahramonlar nutqida sodda, qisqa va hissiy jihatdan faol gap qurilmalari ustunlik qiladi. Bu esa qahramonlarning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va kommunikativ xulqini yoritishda muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kinoqissalarda hududiy muhit ham nutqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Muallif ayrim obrazlar nutqiga shevaga xos fonetik yoki leksik birliklarni ehtiyotkorlik bilan kiritadi. Bunday birliklar badiiy matnning milliy ruhini kuchaytirish bilan birga, qahramonning qaysi hudud vakili ekanligini ham tabiiy tarzda ifodalab beradi. Shu jihatdan qaralganda, dialektal elementlar faqat til hodisasi emas, balki obraz yaratishning muhim badiiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek kinoqissalarida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi nafaqat leksik vositalar, balki pragmatik birliklar orqali ham namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida murojaat shakllari, iltimos, buyruq, maslahat, kinoya va hazil mazmunidagi nutq aktlari qahramonlarning o'zaro munosabatini belgilaydi. Muallif qahramonlarning ijtimoiy mavqeini ifodalashda murojaat birliklaridan ham mohirona foydalanadi. Rahbar va ziyoli obrazlari nutqida rasmiy murojaat shakllari, hurmat ifodalovchi birliklar va adabiy til me'yorlari ustunlik qilsa, yaqin insonlar o'rtasidagi muloqotda samimiylilikni bildiruvchi so'zlar, qisqartirilgan murojaatlar hamda so'zlashuv uslubiga xos birliklar faol qo'llaniladi. Bu holat dialoglarning tabiiyligini ta'minlash bilan birga, qahramonlarning o'zaro ijtimoiy masofasini ham belgilab beradi.

Kinoqissalarda gender omili ham nutqning ijtimoiy ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatadi. Ayol obrazlari nutqida hissiy-ekspressiv birliklar, muloyim murojaatlar va odob me'yorlariga xos ifodalar ko'proq uchrasa, erkak qahramonlar nutqida qat'iylik, lo'ndalik va vaziyatni tez baholashga xizmat qiluvchi til vositalari ustunlik qiladi. Biroq muallif ayrim obrazlar orqali mazkur an'anaviy qoliplardan chekinib, individual nutq uslubini yaratishga erishadi. Natijada har bir qahramonning nutqi uning shaxsiyati va hayotiy tajribasini ifodalovchi muhim lingvistik belgiga aylanadi. Kinoqissalarda milliy madaniyat va xalqning turmush tarzi bilan bog'liq til birliklari ham nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvini kuchaytiradi. Milliy qadriyatlarni ifodalovchi murojaatlar, maqol va matallar, barqaror iboralar hamda urf-odatlariga oid leksik birliklar dialoglarning tabiiyligini oshiradi. Bunday vositalar nafaqat badiiy-estetik vazifani bajaradi, balki qahramonlarning madaniy identifikatsiyasini ham namoyon etadi. O'zbek kinoqissalarida qahramon nutqi obraz yaratishning yetakchi komponentlaridan biri hisoblanadi. Mualliflar nutqning leksik, stilistik va pragmatik imkoniyatlaridan foydalanish orqali qahramonning ichki dunyosi, ijtimoiy kelib chiqishi, kasbiy faoliyati va kommunikativ xulqini ishonarli tarzda ifodalaydilar. Shu bois kinoqissa tilini sotsiolingvistik jihatdan tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va medialingvistika uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Jadval 1. O'zbek kinoqissalarida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvini belgilovchi lingvistik omillar

Ijtimoiy omil	Nutqda namoyon bo'lishi	Lingvistik vositalar	Namuna (kinoqissa)	Badiiy vazifasi
 Kasbiy mansublik	Qahramonning kasbi bilan bog'liq so'z va iboralardan foydalanish, kasbiy jargonlarning qo'llanishi.	- Terminlar - Kasbiy leksika - Qisqartmalar - Rasmiy iboralar	"Abdullajon", "Suyunchi" → <i>"Hisob-kitobni tekshiring", "Norma bajarildi", "Brigada reja asosida ishlaydi"</i> .	Qahramonning kasbiy muhitini ochish, uning ijtimoiy roli va mas'uliyatini ko'rsatish.
 Yosh xususiyati	Yoshga mos so'z tanlovi, sodda gap tuzilmalari, emosional ifodalar, so'zlashuvga xos birliklar ustunligi.	- So'zlashuv leksikasi - Qisqa gaplar - Undov so'zlar - Takrorlar	"Shum bola" → <i>"Voy, zo'r ekan!", "Menga bermading-a!", "Nima bo'пти endi?"</i> .	Avlod tafavutini ko'rsatish, qahramon psixologiyasini ochish, tabiiyligini ta'minlash.
 Gender omili	Erkak va ayol nutqidagi leksik, stilistik va pragmatik farqlar: muloyimlik, hissiylik, qat'iylik va lo'ndalik elementlari.	- Hissiy-ekspressiv leksika - Muloyim murojaatlar - Qat'iy so'zlar - Intonatsion farqlar	"Dilxiroj" → Ayol qahramon: <i>"Mayli, qani endi, qo'yavering"</i> . Erkak qahramon: <i>"Gapni aniq aytning!"</i> .	Qahramonlar xarakterini individuallashtirish, munosabatdagi farqlarni badiiy ifodalash.
 Hududiy muhit	Shevaga xos so'zlar, fonetik xususiyatlar, mahalliy iboralarining qo'llanishi.	- Shevaga xos leksika - Dialektal so'zlar - Mahalliy iboralar - Fonetik o'zgarishlar	"Suyunchi", "Piyoda" → <i>"Qayerding o'zi, bolajon?", "Boraylik, dag'algap", "Ovozimga chiqarma"</i> .	Milliy kolorit yaratish, qahramonning yashash muhiti va mintaqaviy mansubligini ochish.
 Ijtimoiy mavqe	Rasmiy va norasmiy nutq farqi, hurmat shakllari, murojaat birliklari, ilmiy va kitobiy leksika qo'llanishi.	- Rasmiy leksika - Hurmat so'zlari - Murojaat birliklari - Adabiy til me'yorlari	"Abdullajon" → <i>"Hurmatli ustoz, sizning fikringiz biz uchun muhim", "Marhamat, o'tirishingizni so'raymiz"</i> .	Obrazning jamiyatdagi o'rnini, madaniy saviyasi va muloqot madaniyatini ko'rsatish.

Izoh:



Kasbiy omil – kasb va faoliyat bilan bog'liq til xususiyatlari.



Yosh omili – yosh davriga xos nutq belgilari.



Gender omili – jinsga xos nutq xususiyatlari.



Hududiy muhit – yashash joyi va sheva ta'biridagi xususiyatlar.



Ijtimoiy mavqe – jamiyatdagi o'rin va muloqot darajasi.

Natijalar. O'tkazilgan lingvistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek kinoqissalarida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi qahramon xarakterini yaratishda yetakchi badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Tahlil qilingan asarlarda qahramonlarning kasbiy faoliyati, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei va yashash muhiti ularning nutqida muntazam aks etadi. Ayniqsa, Erkin A'zam kinoqissalarida dialoglarning tabiiyligi, xalqona ifodalar, individual nutq uslubi va pragmatik vositalarning o'rinli qo'llanilishi obrazlarning ishonarliligini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qahramon nutqida qo'llangan leksik va stilistik birliklar faqat kommunikativ vazifani bajarib qolmay, balki badiiy matnning mazmunini chuqurlashtirish, obrazning ijtimoiy maqomini belgilash va muallifning estetik g'oyasini ifodalashga ham xizmat qiladi. Nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi kinoqissaning badiiy qiymatini oshiruvchi asosiy lingvistik omillardan biri ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek kinoqissalarida nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi badiiy matnning mazmuniy va uslubiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim lingvistik hodisadir. Qahramonlar nutqining ijtimoiy omillar asosida shakllanishi ularning xarakteri, dunyoqarashi, madaniy saviyasi va jamiyatdagi o'rnini tabiiy hamda ishonarli tarzda yoritishga xizmat qiladi. Muallif tomonidan tanlangan leksik birliklar, dialoglar, murojaat shakllari, frazeologizmlar va pragmatik vositalar obrazlarning individualligini kuchaytirib, asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini oshiradi. O'zbek adiblari yaratgan kinoqissalar misolida olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, nutqning ijtimoiy ixtisoslashuvi qahramonning kasbiy faoliyati, yoshi, jinsi, hududiy mansubligi va kommunikativ tajribasi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bu esa kinoqissalarni sotsiolingvistik va lingvopragmatik nuqtai nazardan o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Kelgusida o'zbek kinoqissalari tilini korpus lingvistikasi, medialingvistika va diskurs tahlili asosida tadqiq etish, shuningdek, turli davrlarda yaratilgan kinoqissalar nutqini qiyosiy o'rganish mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
2. Hymes D. Foundations in Sociolinguistics. – London: Tavistock, 1974.
3. Gumperz J. Discourse Strategies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1982.
4. Vinogradov V. V. O yazyke khudozhestvennoy literatury. – Moskva, 1959.
5. Baxtin M. M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva, 1979.
6. Lotman Yu. M. Struktura khudozhestvennogo teksta. – Moskva, 1970.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
9. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
10. Yo'ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008.
11. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi masalalari. – Toshkent, 2011.
12. Erkin A'zam. Piyoda. – Toshkent.
13. Erkin A'zam. Dilxiroj. – Toshkent.
14. G'afur G'ulom. Shum bola. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
15. Karimov H. O'zbek kino san'ati tarixi. – Toshkent.